



UO'K: 635.792+632.74

KARAM SHIRASIGA QARSHI BIOSLIP BV BIOPREPARATINING SAMARADORLIGI

Tashpulatov Uygun Bekmurzaevich 

dotsent

Iskandarov Olimboy G'ayrat o'g'li 

magistr

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada karam ekinida uchraydigan karam shirasiga qarshi mikrobiologik «Bioslip BV» preparati sinovdan o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu preparat dastlabki kunlarda nisbatan past samaradorlik ko'rsatgan bo'lsada, qo'llanilgandan 14 kun o'tgach, uning biologik samaradorligi 86,0 foizga yetgan.

Kalit so'zlar: biopreparat, karam shirasi, preparat, kimyoviy, zararkunanda, sabzavot.

Аннотация. В данной статье был испытан микробиологический препарат «Биослип БВ» против капустной тли, встречающейся на посевах капусты. По результатам исследований установлено, что в первые дни препарат проявлял сравнительно низкую эффективность, однако через 14 дней после применения его биологическая эффективность достигла 86,0 %.

Ключевые слова: биопрепарат, сок капусты, препарат, химический, вредитель, овощи.

Abstract. In this article, the microbiological preparation "Bioslip BV" was tested against cabbage aphids found on cabbage crops. According to the research results, the preparation showed relatively low effectiveness in the initial days; however, 14 days after application, its biological effectiveness reached 86.0%.

Keywords: biopreparation, cabbage juice, preparation, chemical, pest, vegetables.

KIRISH

Dunyoda oziq-ovqat mahsuloti sifatida sabzavot ekinlari 100 dan ortiq mamlakatlarda yetishtirilib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini ma'lum darajada qondirmoqda. Jahonda sabzavot ekinlarini yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinda Xitoy, Amerika, Rossiya, Hindiston, Eron davlatlari turadi. Sabzavot ekinlari inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi. Aholini bu mahsulotlar bilan yil davomida uzluksiz ta'minlash uchun



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ularning hosilini kasallik va zararkunandalardan samarali himoya qilishning usul va vositalarini izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ekinlarda turli xil kasallik va zararkunandalar ko'p miqdorda uchrashi va 30-40% gacha hosildorlikni kamayishiga olib kelmoqda. Kimyoviy mineral o'g'itlardan va boshqa kimyoviy moddalardan muntazam foydalanish natijasida tuproqning biologik faolligi va unumdorligi ko'rsatkichi salbiy tomonga qarab o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, tuproqda to'planib borayotgan kimyoviy birikmalar o'simlik mahsulotlariga va undan inson organizmiga o'tishi natijasida og'ir kasalliklarni keltirib chiqarishi, yurak qon tomir tizimi buzilishi, inson va hayvonlar nasliga salbiy ta'sir etishi aniqlangan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi issiqqonli hayvonlar va atrof - muhitga salbiy ta'siri kam bo'lgan yangi himoya vositalarini ishlab chiqish va qo'llash dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, entomopatogen mikroorganizmlar asosida yaratilayotgan preparatlar ustida tadqiqotlar olib borish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda keyingi yillarda qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashda biologik usullar keng qo'llanilmoqda, chunki bu usulda inson xayoti va atrof muhitning musaffo saqlanishi nazarda tutilib, zararkunandalarning xilma - xil va mikrobiopreparatlar ishlatilmoqda. [1, 2, 3].

Mikrobiopreparatlar kimyoviy preparatlardan farq qilib, juda ko'pgina afzalliklarga ega, ya'ni issiqqonli hayvonlar va insonlarga zararli ta'sirining pastligi, tabiatda uchraydigan foydali hasharotlarga bezararligi, zararkunandalar o'rtasida kasallikni yuqtirib tarqata olishi, hasharotning kelgusi avlodlariga ham ta'sir ko'rsatishi va boshqalar. [4, 5].

Respublikamiz sharoitida sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik usulda kurash olib borish yo'nalishida bizdan oldin ham tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, bu soha doimiy takomillashtirilib borishni taqozo etadi. Karam ekinidagi karam shirasiga qarshi bunday tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shuning uchun ham biz o'z oldimizga Bioslip BV biopreparatining sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi o'tkazilgan sinov natijalari quyida keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra tajribadagi preparat uzoq ta'sir etish xususiyati (21 kundan ortiqroq) sababli boshqa preparatlardan ajralib turadi.

Dastlabki tadqiqotlar laboratoriya sharoitida o'tkazilgan bo'lib, sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi yuqori samara bergan sarf miqdorlari kichik dala tajribalarida qayta sinab ko'rildi.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha Bioslip BV preparati kechki karamdagi shiralarga qarshi 2,0 l/ga sarf miqdorida qo'llanilganda preparat sepilgandan keyin 1-kuni biologik samaradorlik 22,6 % ni tashkil qildi. Tajribamizning 3-hisob kunida shiralar sonining nazoratga nisbatan kamayishi 54,7 % ga yetgan bo'lsa, 7-kunga kelib 83,0 % ni tashkil qildi. Biopreparat sepilgandan keyin 14 va 21 kunlari tajribadagi preparatning samarasi sezilib turdi va 14 - kuni 86,0 % hamda 21 - kuni 77,0% gacha bo'lganligi kuzatildi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Tadqiqotlarimizda olingan natijalar andoza variantida, ya'ni Agrofos, 55 % k.em. preparati 1,0 l/ga sarf miqdorida qo'llanilgan variantda olingan natijalarga yaqin bo'ldi. Andoza variantida karam shiralarning nazorat variantidagiga nisbatan kamayishi 1- kun – 91,2 %, 3- va 7 – kunlari – 93,0% dan, 14-kuni – 91,8% ni, 21-kuni esa – 91,6 % tashkil qilgan.

1-jadval

Kechki karamda Bioslip BV mikrobiologik preparatining karam shirasiga qarshi biologik samaradorligi (ToshDAU O'quv-ilmiy tajriba xo'jaligi 2025-2026 yy)

Variantlar	Preparat sarf-me'yori, l/ga	O'rtacha 1 bargdagi shiralar soni, barg/ekz.					Biologik samaradorlik, hisob kunlari bo'yicha %					
		Ishlov-gacha	Ishlov berilgandan keyin, kunlarda					1	3	7	14	21
			1	3	7	14	21					
Bioslip BV	2,0	65,9	54,7	36,5	12,4	14,3	21,9	22,6	54,7	83,0	86,0	77,0
Agrofos, 55% k.yem. (andoza)	1,0	56,0	5,3	4,8	6,1	7,5	9,8	91,2	93,0	93,0	91,8	91,6
Nazorat (ishlov berilmagan)	-	58,2	62,4	71,2	91,0	95,4	96,1	-	-	-	-	-

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan xulosa qilib aytganda karam ekinidagi karam shirasiga qarshi mikrobiologik Bioslip BV preparati sinovdan o'tkazilib, ushbu preparat dastlabki kunlari pastroq samaradorlik ko'rsatsada, dori sepilgandan keyin 14 kunga kelib 86,0 % biologik samaradorlikga erishildi. Bioslip BV preparatini karam shirasiga qarshi 2,0 l/ga sarf me'yorida qo'llash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Tashpulatov U.B. Karam shirasiga qarshi afidofag entomofaglar samarasi va ularning tashqi muhit omillariga munosabati. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik holati, muommolari va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2018. – B. 250-252.

2. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (2-nashr). 2004. – 18 b.

3. Xo'jaev Sh.T. Agrotoksikologiya asoslari hamda tadqiqot o'tkazish qoidalari. – Toshkent, 2018. – B.134-135.

4. Вайзер Я. Микробиологические методы борьбы вредными насекомыми. Москва, 1972. – С.47-52

5. Литтл Т., Хиллз Ф. Сельскохозяйственное опытное дело //Планирование и анализ. - М.: Колос, 1981. - 320 с.

